

ILMIY MATNDA BO'YOQDORLIK MASALASI

10.00.00- Filologiya fanlari

Umarova Dildora Mirzamurod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Umarovadildora466@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolda o'zbek ilmiy matnining xususiyatlari haqida so'z yuritilgan, ekspressivlikning ilmiy matnga tegishliligi yoki tegishli emasligi masalasi nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi haqida hamda tilshunoslarning bu boradagi qarashlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ilmiy matn, ekspressivlik, bo'yoqdorlik masalasi, bo'yoqdor vositalar, o'xshatishlar, metaforalar, epitetlar, kommunikatsiya elementlari, subyektiv baho.

ВОПРОС О КРАСИТЕЛЯХ В НАУЧНОМ ТЕКСТЕ

УДК: 10.00.00-Филологические науки

Умарова Дилдора Мирзамуродовна

Магистрант Шахрисабзского
государственного педагогического институтаUmarovadildora466@gmail.com

Аннотация. В этой статье говорилось об особенностях узбекского научного текста, обсуждалось теоретическое значение вопроса о принадлежности экспрессивности научному тексту, а также взгляды лингвистов на этот вопрос.

Ключевые слова: научный текст, выразительность, проблема красочности, окрашивающие средства, сравнения, метафоры, эпитеты, элементы коммуникации, субъективная оценка.

The issue of expressiveness in scientific writing

UDC: 10.00.00-Philological sciences

Umarova Dildora Mirzamurodovna

Master's student of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Umarovadildora466@gmail.com

Annotation. This article talked about the peculiarities of the Uzbek scientific text, discussed the theoretical significance of the question of whether expressivity belongs to a scientific text, as well as the views of linguists on this issue.

Keywords: scientific text, expressiveness, the problem of colorfulness, coloring tools, comparisons, metaphors, epithets, elements of communication, subjective assessment.

O'zbek ilmiy matnining o'ziga xos tomonlari haqida fikr yuritilganda, ekspressivlik va uning ilmiy matnga mansub yoki mansub emasligi masalasi nazariy ahamiyat kasb etadi. Bu masalada tilshunoslar mushtarak fikrda emas.

Ma'lumki, tilning asosiy va yetakchi vazifasi kommunikativlikdir. Til faqat kommunikatsiya vositasi, fikr almashish quroligina bo'lib qolmasdan, turli his-hayajon yoki ekspressiv ifoda qilish vositasi ham sanaladi.

Tilning ekspressiv ifoda qiluvchilik vazifasi badiiy nutqqa xos asosiy va yetakchi hodisa sifatida e'tirof etiladi. Fanda, jumladan, turkiy tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida ilmiy matn va u bilan bog'liq bo'yoqdorlik masalasi monografik yo'sinda maxsus o'rganilmagan.

Bo'yoqdorlik atamasi fanda ikki ma'noda qo'llanib kelyapti:

a) ifodaviylik; b) his-hayajonning namoyon bo'lish kuchi.

Yirik uslubshunos olim A.I.Yefimovning qayd qilishicha, bo'yoqdorlik o'ziga xos ma'no jilvasiga ega bo'lib, unda nutq (so'zlovchi)ning nutq obyektiga bo'lgan subyektiv munosabati ifodalanadi. Umuman, bo'yoqdorlik badiiy-tasviriy ifodalilikdan tashqari, anglashilayotgan tushunchaga so'zlovchining nutq situatsiyasi bilan bog'liq munosabatini kuchli ta'sir ila ifodali yetkazish imkoniyatini beradi.

Bo‘yoqdorlik kommunikatsiya jarayonining tarkibiy qismi sanaluvchi his-hayajon tarkibiga kirmaydi. Ye.F.Galkina-Fedorukning qayd qilishicha, garchand his-hayajon va ekspressiya zamon va makonga ko‘ra yondosh hodisalar sanalsa ham, his-hayajondan xoli bo‘lgan ekspressiya ham mavjud: “ekspressiya hamma vaqt his-hayajonlilik kasb etavermaydi”. Ilmiy matnga xos bo‘yoqdorlik ham ana shunday his-hayajondan xoli bo‘ladi.

M.N.Kojina tadqiqotlarida bo‘yoqdorlik his-hayajonga nisbatan kengroq ma’noda talqin etiladi. Uningcha, bo‘yoqdorlik his-hayajon va obrazlilikni o‘zida birlashtiradi.

Biz ham ekspressivlikni shu ma’noda qo‘llaymiz.

Rus, ingliz va boshqa tillardan shu mavzuga oid adabiyotlarda bo‘yoqdorlikning ilmiy matn uchun xos yoki xos emasligi haqida qarama-qarshi fikrlar bayon qilingan.

Bir guruh tilshunoslar his-hayajon, ekspressivlik ilmiy matn uchun xos emas, degan fikrdadir. Bu fikr tarafdorlari bilimlarning matematiklashib borayotganligi, deduktiv metodning keng qo‘llanayotganligini ilmiy matn uchun mutlaq umumlashtirishning, ifodaning obyektivligi, ilmiy matnda ijodiy tafakkur va kommunikatsiyaning boshqa elementlari: his-hayajon, obrazlilik, ekspressiya individuallikka yo‘l qo‘ymaydi deb hisoblaydi. Bu fikr tarafdorlari ifodada, sal bo‘lsa ham, his-hayajon va mubolag‘aga o‘rin berilishi, hatto minimum obrazlilik ham ifoda aniqligiga putur yetkazishi mumkin, deb hisoblaydilar. Lekin keyingi yillarda yuzaga kelgan adabiyotlarda ilmiy matn uchun ham his-hayajon, subyektiv bo‘yoqdorlik xosligi qayd qilinmoqdaki, bunga asos bor, albatta.

N.M.Rozinkina ilmiy uslubga oid adabiyotlar ham his-hayajonli-subyektiv baho elementlariga ega ekanligini ingliz tili ilmiy uslubiga oid ashyoviy materiallar asosida isbotlab beradi. Uning qayd qilishicha, mantiqiy nutq his-hayajonli bo‘yoqqa, his-hayajonli nutq qat’iy mantiqiy qurilishga ega bo‘lishi kerak.

O.A.Krilova bu masalada ikkilanadi. Bir o‘rinda ilmiy uslub uchun his-hayajonli-bo‘yoqdorlik xos emasligini aytgan holda, keyingi o‘rinda ilmiy uslubning ba’zi janrlarida (masalan, ilmiy-ommabop maqola va ma’ruza matnlarida) bunga zid fikr

bildiradi. Trop, metafora, epitet va shu kabi bo‘yoqdor vositalardan foydalanish mumkinligi haqida gapiradi.

Ma’lumki, inson tafakkuri borliqni sezgi a’zolari orqali mantiqiy bilish qobiliyatiga ega. Ma’lum maqsad uchun yo‘naltirilgan subyektiv munosabat-subyektiv baho ma’lum bir fikrning isboti uchun qaratilgan bo‘ladi.

Akademik I.P.Pavlov rassom va mutafakkir haqida fikr yuritib, ular o‘rtasidagi farq hamda ichki aloqaning borligini qayd qiladi. Farq voqelikni bilish usulida, aloqa tasavvurdagi haqiqatni jonlantirishga harakat qilishda deb hisoblaydi. Mutafakkir o‘rganilayotgan obyektning bir butunligini nazarda tutadi. Bu maqsadga matn uchun ifoda his-hayajonliligini berish orqali erishadi. Rassomga “borliqni bilish” uchun ifodaning logikligi qo‘l keladi. Shunga o‘xshash fikr mashhur olim A.Eynshteynda ham mavjud, “O‘ylash (voobrajenie), - deb yozadi u, - bilimga qaraganda muhimdir, chunki bilim chegaralangan, o‘ylash esa olamda mavjud barcha narsalarni qamrab oladi, progressni rag‘batlantiradi... Qat’iy aytganda, o‘ylash ilmiy tadqiqotda real dalildir”. I.Pavlov va A.Eynshteynlarning bu mushohadalari ilmiy matnda mantiqiylik va his-hayajonning o‘zaro munosabatini to‘g‘ri anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy ijod psixologiyasi sohasida olib borilgan tadqiqotlarda ham tafakkur va uning tashqi ifodasi bo‘lmish subyektiv baho, his-hayajon va ekspressiyadan holi bo‘la olmasligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Ilmiy matnda fikrni aniq va lo‘nda ifodalash va “hayajonsiz” mantiqiy hukm hamrohlikda his-hayajonli subyektiv baho bilan qo‘shilib, ilmiy dalillarning asosligini anglash imkonini yaratadi.

R.A.Budagovning qayd qilishicha, “uslub aniqligini - uning obrazliligiga (keng ma’noda his-hayajonliligiga) zid qo‘yib bo‘lmaydi”. A.S.Orlova tadqiqotlari atoqli olim A.N.Krilov asarlaridagi bo‘yoqdorlik va his-hayajon haqida ishonchli ma’lumotlar beradi. O‘zbek tili ilmiy matniga oid adabiyotlarda ham tilning leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik vositalarining aniq bo‘yoqdor-uslubiy ashyo sifatida ishlatilganligi e’tirof etiladi.

Darhaqiqat, ilmiy matnda qo'llanilayotgan turli o'xshatishlar, metaforalar, epitetlar, frazeologizmlar bo'yoqdorlik uchun xizmat qilyapti. Tilning grammatik-mantiqiy butunligi hisoblanuvchi murakkab ilmiy matnlarga metafora, o'xshatish, frazeologizm kabi lisoniy vositalar munosib libos bo'lib, o'quvchi diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi, uning ijodiy tasavvurini faollashtiradi.

Ba'zi misollar keltiramiz:

O'zbek xalqi orasidagi gavhardek sochilib yotgan bebaho boyliklardan biri bo'lmish "kasb-hunar leksikasi" deb atalib kelinayotgan katta bir terminologik qatlamni to'plab shu asosda kitob holida nashr etib, doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan Ibrohimov S.ning tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir. (R.Doniyorov. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. -T.: Fan, 1997.- 16- b.)

Nuklenin kislotar molekulalaridagi monomrelar murakkab efir bog'i bilan birikkan. (Nikolayev A.Ya, Biologik ximiya. -T.: Ibn Sino, 1991, 404-b.)

Geografiya faniga oid ilmiy matnda uchraydigan qora tuproq, qizil tuproq, serostona daryo, astronomiyaga oid uchar yulduz, somon yo'li kabilar ham obrazli nomlardir.

Tilning morfologik birliklaridan salbiy yoki ijobiy munosabat bildiruvchi otlar, subyektiv baho ifoda qiluvchi so'zlar, ayrim olmoshlar, yuklamalar ham ilmiy matnda mana shu vazifani bajaradi.

Shu ravishda ona ta'sirida Fozilxo'ja drammatizmi tragizmga o'sib o'tish xavfidan xoli bo'ladi. Qahramon o'zida yana kurashchanlik ruhini tiklaydi-yu, ammo qanday kurashadi, hali kurashning to'g'ri yo'lini bilmaydi-ku! ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1990, №1. 29-b.)

Lug'atlardagi kamchiliklardan yana biri shundaki, ular da negadir ayrim texnik terminlarga ekvivalent tanlanmaydi, balki o'sha terminning izohi berib qo'yiladi. (Doniyorov R., O'sha asar, 35- b.)

Ilmiy matnda bo'yoqdorlik uchun sintaktik imkoniyatlardan keng foydalaniladi. Bunda qo'llanilgan turli sintaktik figuralar (antiteza, takror, parallelizm, ellipsis, ritorik so'roq kabilar) bo'yoqdorlik uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, ilmiy ifoda uchun mantiqiy sintaksis izchillikni ta'minlovchi so'zning ma'lum bir tartibiga amal qilish me'yoridir. Lekin ilmiy matnda ham, ayrim uslubiy (ayniqsa, bo'yoqdorlik) talablarga ko'ra, gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgartiriladi. Bu esa inversiyadir. Tilda hech qanday sabab va maqsadsiz umumiy qoidadan chekinish hodisasi bo'lmaganiday, gapda odatdagi tartibning o'zgarish (inversiya) ham tasodifiy hodisa emas. U nutqning ta'sirchanligi, bo'yoqdorligi kabi maqsadlar uchun xizmat qiladi:

Aniqrog'i, uning she'rlaridan rus o'rmonlarining nafasi qayin va archazorlarning oq qayin sharbatidek shirin ta'mlari va bo'ylari ufurib turadi. Shoir milliy zamindan uzilmagan holda boy rus va ilg'or G'arb poetik bisotini chuqur o'zlashtirgani mevasi bu. ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1990, №1. 39-b.)

Ilmiy matnda ritorik so'roq gaplarga ham uslubiy vosita sifatida murojaat qilinadi. Bu ham nutqning ekspressivligi uchun xizmat qiladi:

Zotan "O'tkan kunlar"da muhim g'oyaviy estetik konsepsiya negizida chin insoniylik muhabbatini ifodalagan Otabek va Kumushbibilarning ezgu hayotini zaharlagan chirkin odamlarni tashuvchi O'zbek oyim yozuvchining satirik tig'iga uchramaganmi?! O'zbek oyim chala dumbul tabiatli bir xotin bo'lsa ham, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi qabilida ta'riflanishi, uning ichki dunyosidagi zaifliklar bilan tashqi xatti-harakatlari da'vosi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi satirik obrazlarga xos ichki kulgili konflikt emasmi?! Nazarimda, O'zbek oyim tom ma'nosida adib satirik obrazi sifatida gavydalanadi. ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1996, № 5. 13-b.)

Ilmiy matnda qo'llaniladigan ayrim so'roq va undov gaplar ham bo'yoqdorlik uchun xizmat qiladi:

Xo'sh, qisqa vaqt ichida mavjud bo'lgan rezonans o'zining individual xususiyatlarini yo'qotmagan -ksi minus giperon va Pi-mezonning oddiy birikmasimi yoki bu vaqt ichida u O deb ataluvchi zarrami? Yoki bunday qisqa vaqtlarda zarra va birikma tushunchasi uchun bu nazarda tutgan farqning ma'nosi yo'qmi? Bu savollarga

fan hali javob bera olmaydi. **(Bekjonov R. Yadro fizikasi. -T.: O'qituvchi, 1995. – 241- b.)**

Ilmiy matnda qo'llaniladigan ayrim kirish va kiritma konstruksiyalar ham so'zlovchining aytilayotgan fikriga bo'lgan munosabatini ifoda qiladi:

Albatta, nishon-yadroning boshlang'ich holatini o'zgarishi reaksiya natijasida bir yoki bir necha yadrolarning hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. (Bekjonov R., Yadro fizikasi. -T.:O'qituvchi, 1995, 138-b.)

Ota-bobolarimizning og'irini yengil qilib kelayotgan muhim bir ishlab chiqarish qurollarining nomi bo'lmish omoch so'zining termin hisoblanmasligini sababi faqat mana shunda ham ekan (uni tamomila rasmiylashtirish, qabul qilish va qonunlashtirish kimning ham xayoliga kelyapti deysiz o'sha vaqtda. (Doniyorov R. O'sha asar,25- b.)

Ilmiy matnlarda ekspressiyaning ayrim gap bo'laklari, ergash gaplar, butun-butun gaplarni ma'lum maqsad uchun ajratish usulidan ham keng foydalaniladi.

Biz yuqorida ilmiy matnda bo'yoqdorlikni ifoda qiluvchi vositalarning ayrimlari haqida fikr yuritdik. Isbot uchun keltirilgan dalillarning aksariyati ilmiy-ijtimoiy matnlardan olindi. Obyekti jamiyat kishilarning ma'naviy faoliyati bo'lgan ilmiy-ijtimoiy matnlarda tilning bo'yoqdor vositalariga nisbatan ko'p murojaat qilinadi. Bu degan gap matematika, mexanika, fizika kabi aniq fanlarda ekspressiya vositalariga murojaat qilinmaydi, degan gap emas. Bunday matnlarda ham ekspressiya vositalariga murojaat qilinadi. "Fan, - deb yozadi Eynshteyn, - qancha o'tkirlashib va ixtisoslashib borsa, uning muhim belgilari texnik apparatlarsiz ham shunchalik ravshan va oson sezila boshlaydi".

His-hayajon kategoriyasi biron ilmiy muammoni rang-barangligi bilan qisqa, jonli qilib ifodalashda, ayniqsa fan yutuqlarini ommalashtirishda ham ahamiyat kasb etishi mumkinligini ko'rsatadi. Faqat "mashina tafakkuri", "mashina tili" sof mantiqiy, mutlaq umumlashgan - abstraksiyalashgan bo'lishi mumkin.

Ilmiy matnda, uning qaysi uslubiy shoxobchasi bo'lishidan qat'iy nazar, o'ziga xos bo'yoqdorlik bo'ladi. Bunday bo'yoqdorlik, garchand maxsus va tegishli lisoniy

vositalar– ifodaviy markerlar bilan shakliy qiyofasini topmagan bo'lsa-da, tinglovchining ana shu ilmiy asar mansub bo'lgan fanga ehtiromi, qiziqishi kabi intellektual hissiy qobiliyati bilan bog'liq bo'ladi. Bu xususiyatni badiiy matnga qiyoslasa ham bo'ladi. Badiiy matnga xos matnlarda bo'yoqdorlik qanchalik kuchli bo'lmasin, u qanchalik boy lisoniy vositalar orqali berilmasin, shu badiiy matnni badiiy adabiyotga muxlis sifatida ehtirom qo'ymagan shaxs ehtirossiz o'qiydi, undagi badiiy ma'naviy ta'sirni sezmaydi. Bundan shu narsa aniq seziladiki, bo'yoqdorlikni tasavvur etish ikki tomonlama bo'ladi: ham so'zlovchi – subyekt, ham tinglovchi obyektning bir xil ma'naviy va badiiy, ijtimoiy va ta'limiy tayyorligiga bog'liq. Ayniqsa, bo'yoqdorlik va uning ta'sir kuchi, me'yorida tinglovchi - adresantning matnni, uning mazmunini kasbiy va nokasbiy tarzda qabul qilishiga, unga kasbiy va kommunikativ munosabatda yondashuviga bog'liq.

Kishilik tafakkuri uchun, uning tabiiy ishi uchun, matnning ilmiy uslubi uchun boshqa belgilar, masalan, subyektli bo'yoqdorlik ham xosdir. Bu ko'proq ilmiy bahslashuvda namoyon bo'ladi.

Xullas, bo'yoqdorlik ilmiy matnda mavjud tabiiy va zaruriy xususiyatlardan biridir. Bo'yoqdorlik - ilmiy matnning, yetakchi bo'lmasa-da, ammo yetarlicha ahamiyatga molik bo'lgan uslubiy qirrallaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.R.Doniyorov. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. -T.: Fan, 1997.- 16 b
- 2.Nikolayev A.Ya, Biologik ximiya. –T.: Ibn Sino, 1991, 404-b.
3. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.1991-2018 yillar.
4. Bekjonov R. Yadro fizikasi. -T.: O'qituvchi, 1995. –241- b.
5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1995.

6. Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.